



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

2. Авлиякулова Матлуба Авазовна

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

4. Karimova Nigina Botirjon qizi

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

7. Hojiyev Nosirjon Komilovich

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

10. Husanboev Sardor Abdukarimovich


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

12. Курбонов Давлат Равшанович

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87




12.00.14-ПРОФИЛАКТИКА ПРАВОНАРУШЕНИЙ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОБАЦИИ

Husanboev Sardor Abdugarimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sardorxusanboyev0@gmail.com

YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORA- TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

For citation: Khusanboev Sardor Abdugarimovich. ISSUES OF IMPROVING PREVENTIVE MEASURES TO PREVENT EXTREMIST THREATS AMONG YOUNG PEOPLE. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509367>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida ekstremistik tahdidlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Ekstremizmning zamonaviy ko‘rinishlari, uning ijtimoiy, mafkuraviy, psixologik va axborot omillari hamda radikal g‘oyalarning yoshlar muhitida tarqalish mexanizmlari ilmiy manbalar va xorijiy tajriba asosida yoritilgan. Maqolada profilaktikaga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan hamda xalqaro tajriba misolida idoralararo hamkorlik, jamoatchilik ishtiroki, ta’lim, axborot texnologiyalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda yoshlar ekstremizmining oldini olishga qaratilgan qonunchilik, profilaktik dasturlar va institutsional hamkorlik masalalari yoritilib, mazkur sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar ekstremizmi, ekstremistik tahdidlar, profilaktik chora-tadbirlar, radikallashtirish, mafkuraviy ta’sir, axborot muhiti, onlayn radikallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, psixologik omillar, idoralararo hamkorlik, jamoatchilik ishtiroki, diniy tashkilotlar, huquqiy baza, ekstremizmga qarshi kurash, jamiyat barqarorligi.

Хусанбаев Сардор Абдукаримович,
Самостоятельный соискатель Академии Министерства
внутренних дел Республики Узбекистан
E-mail: sardorxusanboyev0@gmail.com

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕР ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ЭКСТРЕМИСТСКИХ УГРОЗ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно проанализированы вопросы совершенствования профилактических мер, направленных на предупреждение экстремистских угроз среди молодёжи. Освещены современные проявления экстремизма, его социальные, идеологические, психологические и информационные факторы, а также механизмы распространения радикальных идей в молодёжной среде на основе анализа научных источников и зарубежного опыта. В статье обоснована значимость комплексного подхода к профилактике, а также на примере международного опыта проанализирована эффективность межведомственного взаимодействия, участия общественности, образования, информационных технологий и механизмов социальной поддержки. Кроме того, рассмотрены вопросы законодательства, профилактических программ и институционального взаимодействия, направленных на предупреждение молодёжного экстремизма в Узбекистане, и изложены научно обоснованные выводы по совершенствованию данной сферы.

Ключевые слова: молодёжный экстремизм, экстремистские угрозы, профилактические меры, радикализация, идеологическое воздействие, информационная среда, онлайн-радикализация, социально-экономические факторы, психологические факторы, межведомственное взаимодействие, участие общественности, религиозные организации, правовая база, противодействие экстремизму, стабильность общества.

Khusanboev Sardor Abdugarimovich,

Independent researcher of Academy of the Ministry
of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
E-mail: sardorxusanboyev0@gmail.com

ISSUES OF IMPROVING PREVENTIVE MEASURES TO PREVENT EXTREMIST THREATS AMONG YOUNG PEOPLE

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of improving preventive measures aimed at preventing extremist threats among young people. It highlights contemporary manifestations of extremism, its social, ideological, psychological, and informational factors, as well as the mechanisms by which radical ideas spread among young people, based on an analysis of scientific sources and international experience. The article substantiates the importance of a comprehensive approach to prevention and, using international experience as an example, analyzes the effectiveness of interagency cooperation, public participation, education, information technology, and social support mechanisms. Furthermore, it examines legislation, preventive programs, and institutional cooperation aimed at preventing youth extremism in Uzbekistan, and presents scientifically based conclusions for improving this area.

Keywords: youth extremism, extremist threats, preventive measures, radicalization, ideological influence, information environment, online radicalization, socio-economic factors, psychological factors, interdepartmental cooperation, public participation, religious organizations, legal framework, countering extremism, social stability.

Hozirgi zamonaviy geosiyosiy vaziyatda ekstremizm masalasi jahon hamjamiyati uchun jiddiy xavf hisoblanadi. U turli hududlarda ijtimoiy notinchlik, diniy nizolar, terrorchilik faoliyati va jinoyatchilikning keskin o‘shiga sabab bo‘lmoqda. Bu borada ichki ishlar organlarining, ayniqsa, tezkor xizmatlarining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ekstremistik guruhlarining faoliyatini fosh etish borasidagi samarali choralar, takliflar va ularning amalga oshirilishi bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Biz yaxshi tushunamizki, bizning mintaqamiz ham, Yevropa Ittifoqi ham xavfsizlik sohasida, jumladan, terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilikka, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash masalalarida umumiy tahdid va xatarlarga duch kelmoqda” [1] deya ta’kidlab o‘tgan.

Jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, ekstremistik harakatlarga qarshi faqat repressiv choralar bilan emas, balki keng qamrovli ijtimoiy, axborot, profilaktik va tezkor choralar orqali kurashish mumkin. B.Ye. Bagmetning fikriga ko'ra: "Ekstremizmga qarshi kurashning murakkabligi uning o'zgaruvchanligida quyidagilar yotadi: ko'cha tajovuzidan to kibermakongacha bo'lgan ko'rinishlari, bu esa idoralararo hamkorlik va intellektual yondashuvni talab etadi" [2]. Bu fikr asosida IIO tizimidagi tezkor bo'linmalar faoliyati faqat kuzatish, qo'lga olish bilan chegaralanmasligi, balki tahlil, diagnostika va samarali hamkorlikni qamrab olishi lozim demoqchi.

Ekstremizm – bu murakkab ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq hodisa bo'lib, uni faqat bir taraflama masalan, faqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vositasida yoki faqat diniy targ'ibot orqali bartaraf etish mumkin emas. Shu bois, xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ekstremizmga qarshi kurashda kompleks, ya'ni tizimli yondashuv muhimligi alohida ta'kidlanadi.

Devid Xiks (David Hicks), AQShdagi Kolumbiya universitetining siyosatshunoslik fani professori, ekstremizmga qarshi kurashda bir nechta sohalarining hamkorligini tashkil etish lozim deb ta'kidlaydi va "Ekstremizmga qarshi samarali kurash huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va diniy tashkilotlarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirishni talab etadi. Faqatgina ushbu institutlarning hamkorlikdagi harakati jamiyatda radikal mafkuralarga nisbatan barqaror immunitetni shakllantirishga imkon yaratadi" [3] degan fikrni ilgari suradi.

Yuliy Valter esa ekstremizmni fosh etish va profilaktikada axborot texnologiyalari hamda jamoatchilikni jalb qilishning ahamiyatiga e'tibor qaratgan, uning fikricha ekstremizmga qarshi kurashning zamonaviy usullari faqatgina kuch ishlatish choralari emas, balki aholini ma'rifatli qilish, internet makonini nazorat qilish, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni faol jalb etishni ham o'z ichiga olishi lozim [4].

Xuddi shuningdek, London universitetining kriminologiya professori, Tomas Anderson (Thomas Anderson), ekstremizmga qarshi kurashda tizimli yondashuvning muvaffaqiyati jamoatchilik ishtiroki va idoralararo hamkorlikka bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tgan bo'lib, ekstremizmga qarshi kurashishda tizimli yondashuv faqatgina ma'muriy choralarni emas, balki fuqarolik jamiyatini jalb etishning uzoq muddatli strategiyalarini, barvaqt profilaktika mexanizmlarini yaratishni va zaif guruhlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur deb biladi [5].

Xuddi shuningdek, Rossiya, Germaniya, AQSh va boshqa davlatlarda ekstremizmga qarshi kurashda tizimli yondashuv asosida ko'p sohali hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Bu tizimda huquqni muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari, psixologlar, diniy jamoatlar va axborot texnologiyalari markazlari birgalikda faoliyat yuritadilar.

Xorijiy olimlar fikriga ko'ra, ekstremizmga qarshi kurashda tizimli yondashuv, bu murakkab ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlarni birlashtiruvchi kompleks chora-tadbirlar majmuasidir. Unda huquqiy, profilaktik, ma'rifiy va texnologik mexanizmlar bir vaqtning o'zida ishga tushiriladi. Bu yondashuvning muhim jihati jamoatchilikning faol ishtirok etishi va idoralararo hamkorlikni mustahkamlashdir.

Ekstremizmga qarshi kurashidagi hamkorlikning elementlaridan biri bo'lgan o'zaro axborot almashish masalasida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'pdir. Misol uchun IIO, DXX, Favqulodda vaziyatlar, kibernetika markazlari va boshqa idoralar o'rtasida birlashgan axborot bazasi yaratish, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda transchegaraviy ma'lumot almashinuvi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, tezkor axborot almashinuvi bu yoshlar ekstremizmga qarshi kurashda muhim element bo'lib, turli idoralar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi. Ushbu jarayon chet davlatlarda quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Yoshlar bilan maqsadli ishlashda individual yondashuv, ta'lim-targ'ibot ishlari, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy faollikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Boshqa davlatlarning tajribalari yoshlar o'rtasida radikallashtirishga qarshi tizimli profilaktik ishlarni tashkil etishda samarali modellar sifatida xizmat qiladi.

Respublikamizda yoshlarni ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga jalb etilishidan himoyalashda bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi zamonada ekstremizm va terrorizm milliy xavfsizlik uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi. Bu tahdidlar orasida ayniqsa

yoshlar katta xavf ostida turibdi, chunki ular ko‘pincha radikal g‘oyalari ta‘siriga uchrab, noqonuniy faoliyatga jalb qilinadi. Davlat yoshlarni bu xavflardan himoyalashda asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu tadqiqot davomida Rossiya, AQSh va Yevropa misolida yoshlarni muhofaza qilishning samarali davlat yondashuvlarini tahlil qilish hamda yetakchi olimlar fikrlarini ko‘rib chiqdik. Jumladan,

Ekstremizmga qarshi kurashda asosiy omillardan biri qonunchilikni rivojlantirish hisoblanadi. Rossiyalik olim A.F. Xaliullin qonunchilikni kuchaytirish, ekstremizm va terrorizmni targ‘ib qilish uchun javobgarlikni mustahkamlash, bolalar va o‘smirlarda vatanparvarlik tarbiyasi hamda bag‘rikenglikni rivojlantirishdir hamda profilaktik choralarini joriy etish zarurligini ta‘kidlaydi [6].

AQShda esa qonunlar nafaqat jazo choralari, balki “Countering Violent Extremism” [7] (CVE) dasturlari orqali profilaktikani ham qamrab oladi. Amerikalik mutaxassislar fikriga ko‘ra, bu dasturlar yoshlar va xavf ostidagi guruhlar bilan ishlash hamda radikallashtirish ehtimoli bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilishni o‘z ichiga oladi [8].

Fikrimizcha, “Countering Violent Extremism” (CVE) dasturlaridan foydalanish, ya‘ni, ekstremizmga qarshi kurash faqat jazo choralari bilan cheklanmasdan, balki profilaktika, yoshlar va xavf ostidagi guruhlar bilan ishlash hamda radikallashtirish shaxslarni reabilitatsiya qilishni o‘z ichiga olishi kerakligi murakkab ijtimoiy jarayonlarga ilmiy va pragmatik yondashuvni aks ettiradi. Buning ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin, chunki:

1. Profilaktikani amalga oshirishning ahamiyati katta bo‘lib, faqat jazo orqali ekstremizmni kamaytirish muvaffaqiyatli emas, xavfli guruhlar bilan ishlash orqali ekstremistik g‘oyalarning ildiziga yetib borish va ularning tarqalishining oldini olish mumkin.

2. Reabilitatsiya qilining samarasi yuqoriroq bo‘ladi. Chunki, radikallashtirish yo‘liga kirgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, ularga alternativ hayotiy yo‘lni ko‘rsatish orqali ekstremistik oqimlar tarkibining kengayishining oldi olinadi. Bu, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida radikal g‘oyalarning tarqalishini cheklashda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

3. Inson huquqlari va ma‘naviy qadriyatlarini ustuvor qiymat sifatida e‘tirof etgan holda, profilaktika va nazorat choralari amalga oshirish lozim. CVE dasturlari inson huquqlarini hurmat qilgan holda, jazodan ko‘ra ta‘lim, psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ustuvor qiladi. Bu yechimlar jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Davlatning aholi, ayniqsa yoshlarni ekstremistik faoliyatiga jalb etilishidan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishi uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ish olib borishi zarur deb hisoblaymiz, jumladan,

1. Qonunchilik va huquqiy baza takomillashtirish lozim. Mazkur yo‘nalishda :

- Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish hamda samarali qo‘llash

- Jinoyatlarni aniq ta‘riflash, jazo choralari qat‘iylashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlarini kengaytirish.

- Yoshlarni ekstremistik faoliyatga jalb etishga qarshi maxsus qonunchilik mexanizmlarini joriy etish zaruriyati mavjud.

2. Aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida yod g‘oyalarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni maqsadli va tizimli amalga oshirish masalasi ham muhim. Buning uchun:

- maktablar, oliy ta‘lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda ekstremizmga qarshi kurashish maqsadida ta‘lim dasturlari va targ‘ibot tadbirlarini joriy etish;

- yoshlar o‘rtasida radikal g‘oyalarning oqibatlari va xavf-xatarlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahalliy va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish;

- yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni salbiy ta‘sirlardan himoya qilish maqsadida sport, madaniyat va ijtimoiy sohalardagi loyihalarni rivojlantirish zaruriyati mavjud.

4. Yoshlarning bandligini ta‘minlash, ularning mehnat bozoriga muvofiq raqobatbardosh ko‘nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq vazifalarni samarali hal etish masalasi ham muhim hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan ta‘minlash, ular uchun iqtidorlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish zarur. Buning uchun ularning bandligini ta‘minlash borasida samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, ularning salohiyati va iqtidorlarini to‘liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-

sharoitlar yaratish, masalan, malaka oshirish kurslari, kasbiy ta'lim dasturlari, startap va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda yordam berish kabi imkoniyatlarni yaratish orqali yosh avlodning jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish lozim.

- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali kambag'allik va ijtimoiy noaniqliklarni bartaraf etish lozim. Bu esa ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida kambag'allik va ijtimoiy noaniqliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; buning uchun yoshlar uchun maxsus grantlar, stipendiyalar, uy-joy va kredit imtiyozlari, kasbiy o'quv kurslari hamda ish bilan ta'minlash dasturlarini joriy etish orqali ularning moddiy barqarorligini ta'minlash va jamiyatda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Yoshlar uchun innovatsion va tajriba almashish loyihalarini amalga oshirish zarur. Bunda, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ilg'or tajribalarni o'rganish va tatbiq etishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish; bu orqali yoshlar o'rtasida yangicha fikrlash, kreativ yondashuv va startap tashabbuslarini rag'batlantirish, xalqaro tajriba almashinuvi, seminar va treninglar orqali ularni yangi imkoniyatlar bilan tanishtirish hamda ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash zarur.

Diniy va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni tashkil etish zarur deb hisoblaymiz, bunda:

- Diniy yetakchilar va imomlar orqali yoshlarni radikal g'oyalardan himoya qilish. Ichki ishlar organlari tomonidan diniy yetakchilar, imomlar va boshqa jamoat arboblari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish orqali yoshlarni radikal g'oyalardan himoya qilishga qaratilgan ma'rifiy va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish; bu jarayonda yoshlar o'rtasida ma'naviy tarbiyani mustahkamlash, ularning diniy bilimlarini to'g'ri shakllantirish va salbiy ekstremistik ta'sirlardan saqlash uchun diniy arboblarning ta'sirchanligidan faol foydalanish muhim ahamiyatga ega.

- Ichki ishlar organlari mahalla va jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda profilaktik tadbirlarni samarali amalga oshirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borish zarur. Bu jarayonda mahallalardagi jamoatchilik faollari, yetakchi shaxslar va fuqarolar bilan birgalikda yoshlarning ijtimoiy muammolarini aniqlash, salbiy holatlarni oldini olish, ma'naviy-axloqiy tarbiya berish hamda ularni jamiyatga moslashtirish borasida ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Jamoatchilikni "hushyor fuqaro" tamoyili asosida tarbiyalash, ularni jamoat xavfsizligiga mas'uliyat bilan yondashishga uyg'otish hamda turli xavfli holatlar, jumladan jinoyat va ekstremistik faoliyatlar to'g'risida zudlik bilan ma'lumot berishga faol jalb etish, bu orqali jamoatchilik ishtirokini oshirish, mahalliy xavfsizlikni ta'minlashda fuqarolarning hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

- Yoshlar uchun onlayn ta'lim kurslari, videoroliklar va interaktiv platformalarni joriy etish orqali ekstremizmga qarshi ta'lim berish tizimini takomillashtirish; bu jarayonda yoshlar o'rtasida radikal g'oyalarning zararli ta'sirini kamaytirish, ularning ma'naviy-axloqiy savodxonligini oshirish hamda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan innovatsion va samarali usullar qo'llaniladi.

- Ijtimoiy tarmoqlar moderatorlari ishtirokida xavfli va radikal kontentga qarshi samarali kurashish tizimini yo'lga qo'yish, bu jarayonda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, zararli ma'lumotlarni tezkor aniqlash va olib tashlash, shuningdek, jamoatchilikni ongli va mas'uliyatli bo'lishga chaqirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olivier Roy yoshlar o'rtasida radikallashtirishni tushunishda va uni oldini olishda faqat qonunchilik choralarini emas, balki diniy ta'limning to'g'ri tashkil etilishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining ham birdek ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [9]. Roy o'z asarida islomni turli jamiyatlarda qanday rivojlanayotgani, globallashtirish jarayonida qanday o'zgarayotganini tahlil qiladi. U islomni bir tomonlama yomon yoki ijobiy sifatida tasvirlamaydi, balki uni murakkab, ko'p qirrali va kontekstga bog'liq fenomen sifatida qarashni taklif qiladi.

Uning fikriga ko'ra, radikallashtirish ko'pincha yoshlarning diniy bilimdagi kamchiliklari, ijtimoiy izolyatsiya va noto'g'ri tarbiya olishlari natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun, radikal g'oyalarga qarshi kurashishda huquqiy choralar bilan bir qatorda, yoshlarga haqiqiy va muvozanatli

diniy ta'lim berish, shuningdek, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bu uchta yo'nalishning hamohangligi yoshlarni radikal ta'sirlardan himoya qilish va ularning jamiyatda barqaror faollik ko'rsatishlariga xizmat qiladi.

Rossiya olimlari, jumladan I.M.Ajmuramedov, bugungi kunda ekstremizm namoyon bo'lishining oldini olishga qaratilgan beshta asosiy psixoprofilaktik yondashuv mavjud, shular biri bu ekstremizm va ekstremistik yo'nalishdagi tashkilotlarning zararli faoliyati haqida ma'lumot tarqatishga asoslangan yondashuv deb qaragan.

Bu yondashuv profilaktik strategiyalarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. U ekstremistik tashkilotlar va ularning diniy, millatchilik, siyosiy g'oyalari xavfi to'g'risida ma'lumot berishga, shuningdek, bu tashkilotlar a'zolarining hayotiy qiyinchiliklari, vaziyatlari va sabablari haqidagi faktlarni keltirishga asoslanadi. Ijtimoiy xodimlar yoshlarni ekstremizm haqida xabardor qilish maqsadida tadbirlar o'tkazadilar va loyihalar ishlab chiqadilar. Ekstremistik tashkilotlarning xavfi haqidagi ma'lumotlar imkon qadar batafsil berilishi va kengroq maqsadlarga ega bo'lgan boshqa dasturlar tarkibiga singdirilishi lozim[10] deb fikr bildirgan.

Ushbu fikr, albatta ekstremizmning oldini olishda axborot tarqatishga asoslangan psixoprofilaktika usuli haqidagi tahlil – dolzarb va amaliy ahamiyatga ega. Ammo ushbu yondashuvning ayrim jihatlari quyidagicha munosabat bildirish mumkin, jumladan, bu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilmaydi, yoshlarning juda ko'p ma'lumot o'qishlaridan charchash xavfi mavjud, ba'zan yoshlarga juda ko'p "o'quv" axborot berish ularda qiziqishni yo'qolishiga olib kelishi va hatto aks ta'sir – qarshi kayfiyatni yuzaga keltirishi, shuningdek, sensitiv materiallarni[11] noto'g'ri yetkazish ya'ni ekstremistik g'oyalar va guruhlar haqidagi ma'lumotlar noto'g'ri yetkazilsa, yoki sensatsion tarzda taqdim etilsa, yoshlarda bunga qiziqish uyg'otishi mumkin deb hisoblaymiz.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlarning turli ekstremistik oqimlar va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolarni tizimli ravishda hal etish orqali bunday salbiy ta'sirlarga qarshi samarali profilaktika choralarini amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz.

Demak, davlat tomonidan yoshlarni ekstremizm va terrorchilik faoliyatiga jalb etilishidan himoya qilish maqsadida kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bu tizim qonunchilik, profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, diniy hamkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'z ichiga olishi kerak ekan

Yoshlarni ekstremizm va terrorchilik faoliyatiga jalb etilishidan himoya qilish uchun davlat tomonidan qonunchilik, ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik bilan hamkorlikni o'z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar tizimi yaratilishi kerak.

IIOlarining boshqa tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik faoliyatini yanada samarali qilish uchun tizimli hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqish ya'ni yoshlar ekstremizmining profilaktikasiga qaratilgan yagona dastur va rejalar asosida ish yuritish; mutasaddi tashkilotlar o'rtasida doimiy hamkorlik platformalarini joriy etish (ijtimoiy tarmoqlar, ishchi guruhlar, qo'shma tadbirlar); IIO xodimlari uchun boshqa tashkilotlar bilan muloqot madaniyatini va jamoatchilik bilan ishlash ko'nikmasini oshirishga qaratilgan o'quv-treninglar o'tkazish; har bir profilaktik tadbirda barcha tuzilmalarning aniq vazifa va vakolatlari belgilangan bo'lishi shart; hamkor tashkilotlar faoliyati samaradorligini baholash mexanizmi joriy etilishi lozim.

Dunyo tajribasi bunday integrativ yondashuv samaradorligini ko'rsatmoqda. Shu birga quyidagi muammolarni hal qilish orqali yoshlarning ekstremistik guruhlarining ta'siri ostiga tushishini oldini olish bo'yicha kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega mumkin deb hisoblaymiz, bular:

- mahalla, ta'lim muassasalari, din idoralari bilan birgalikda xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni muntazam nazorat qilish;
- shubhali faoliyat yuritayotgan fuqarolar bo'yicha reytd tadbirlarini qonuniy asosda tashkil etish;
- ishsizlik, nochorlik, adolatsizlik hissiga ega insonlarni ekstremizm ta'siridan himoya qilish;
- hududiy darajada ish bilan ta'minlash, yoshlar uchun loyihalar va grantlarni kengaytirish;
- ekstremistik ideologiya, internetdagi shubhali ma'lumotlar, dezinformatsiya haqida amaliy

seminar-treninglar o‘tkazish;

- xodimlar o‘rtasida harbiy va psixologik tayyorgarlik kurslarini o‘tkazish orqali tahlil va muomala qobiliyatini oshirish;

- “Hushyor fuqaro”, “Jamoat nazorati” kabi tashabbuslarni qayta rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz.

Aynan shu sohada diniy tashkilotlar bilan tizimli hamkorlikni ham yo‘lga qo‘yish samarali natijalari beradi. Ekstremizm va radikallashuvga qarshi kurashda diniy tashkilotlar bilan hamkorlik muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Diniy rahbarlar va muassasalar jamoat orasida ishonchli va ta’sirli figuralar bo‘lib, ular orqali radikal g‘oyalarga qarshi targ‘ibot ishlarini samarali olib borish mumkin.

Diniy tashkilotlar bilan tizimli hamkorlik ekstremizmga qarshi kurashishda juda muhimdir. Diniy rahbarlar jamoat orasida ishonchli va ta’sirli bo‘lgani sababli, ular orqali radikallashuvga qarshi ta’lim va targ‘ibot ishlarini kengaytirish mumkin. Boshqa davlatlar tajribalarida diniy tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik orqali ekstremizmga qarshi profilaktika tadbirlari samarali amalga oshirilmoqda.

Masjid va diniy o‘quv muassasalari imomlari bilan hamkorlikda ma’ruzalar, targ‘ibot ishlarini tashkil etish shu bilan birga, ekstremizmga qarshi kurashda masjid va diniy o‘quv muassasalari imomlari bilan hamkorlikda ma’ruzalar va targ‘ibot ishlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

- imomlar va diniy idora xodimlari uchun ekstremizm va radikalizmning xavfli jihatlari, uni profilaktika qilish usullari bo‘yicha maxsus trening va seminarlar o‘tkazish;

- diniy ta’limotlar asosida ekstremizmga qarshi ma’ruzalar tayyorlash va ularni yoritish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- imomlar uchun ekstremizmga qarshi ma’ruzalar, ustozlik dasturlari, prezentatsiyalar va boshqa ma’lumotnoma materiallari tayyorlash. Mazkur materiallarning mazmunida diniy ta’limotlar bilan ekstremistik g‘oyalar o‘rtasidagi farq aniq va tushunarli ifoda etilishi lozim;

- masjidlarda juma namozlaridan so‘ng yoki maxsus yig‘inlarda ekstremizmning yot g‘oyalarga qarshi kurashish bo‘yicha ma’ruzalar o‘tkazish;

- yoshlar, ayollar va keng jamoatchilik uchun alohida targ‘ibot tadbirlari tashkil etish;

- imomlar va diniy faollar bilan birgalikda ekstremizmga qarshi profilaktik seminarlar va davra suhbatlari o‘tkazish;

- ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va axloqiy jihatdan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muloqotlar tashkil etish;

- masjidlarda ekstremizmga qarshi targ‘ibot materiallari – bukletlar, plakatlar, audio- va videoyozuvlar tarqatish;


- diniy muassasalar veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot ishlarini olib borish.

Shuningdek, fikrimizcha, qonun va diniy ta’limot o‘rtasidagi farqni tushuntiruvchi muloqotlar jamoatchilikda huquqiy madaniyatni oshirish, diniy ekstremizmga qarshi profilaktik ishlarni kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadbirlarni rejali va tizimli ravishda tashkil etish juda zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlar o‘rtasida ekstremistik tahdidlarning oldini olish zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va axborot muhiti sharoitida kompleks, tizimli va profilaktikaga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari yoshlarning ekstremistik g‘oyalar ta’siriga moyilligi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, psixologik ta’sirchanlik, mafkuraviy manipulyatsiya va internet makonidagi salbiy axborot oqimlari bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan ekstremizmga qarshi kurashda faqat huquqiy mexanizmlar bilan cheklanmasdan, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, ta’lim va ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, shuningdek yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va axborot-mafkuraviy immunitetini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Samarqanddagi «Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi» birinchi sammiti oldidan «Euronews»ga bergan intervyusi . (An interview with the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on the Euronews television channel, given on the eve of the first Central Asia-European Union summit in Samarkand). <https://president.uz/uz/lists/view/8009>.
2. Багмет Б.Е. Проблемы и тенденции экстремизма в XXI веке. — Москва: Издательство «Наука», 2020. — С. 45. 2. Bagmet (B.E. Problems and trends of extremism in the 21st century. - Moscow: Nauka Publishing House, 2020. - P. 45).
3. Hicks D. Effective Counter-Extremism Requires Integration of Law Enforcement, Educational Institutions, Social Services, and Religious Organizations // Journal of Counterterrorism and Security. — 2018. — Vol. 12, № 3. — Б. 102.
4. Walter J. Современные методы противодействия экстремизму // European Security Review. – 2021. – №4. – С. 112–115. 4. (Walter J. Modern methods of countering extremism // European Security Review. - 2021. - No. 4. - P. 112-115).
5. Anderson T. Системный подход в противодействии экстремизму // Criminology and Public Policy. – 2019. – Т. 18, №2. – С. 89–94. 5. (Anderson T. A systems approach to countering extremism // Criminology and Public Policy. - 2019. - Vol. 18, No. 2. - P. 89–94).
6. Халиуллин А. Ф. Профилактика молодежного экстремизма в Башкортостане . Теория права и межгосударственных отношений. 2021. Т. 2. № 3 (15). С. 127- 133. (Khaliullin A. F. Prevention of youth extremism in Bashkortostan. Theory of Law and Interstate Relations. 2021. Vol. 2. No. 3 (15). P. 127-133). <https://www.elibrary.ru /contents.asp?id=46679218>
7. “Zo‘ravnlik ekstremizmiga qarshi kurashish” dasturi. (Countering Violent Extremism Program) [https://www.homeaffairs.gov.au/about-us/our-portfolios/national-security/countering-extremism-and-terrorism/countering-violent-extremism-\(cve\)](https://www.homeaffairs.gov.au/about-us/our-portfolios/national-security/countering-extremism-and-terrorism/countering-violent-extremism-(cve))
8. Берген, П. и др. (2016). Подробно: Терроризм в Америке после 11 сентября. Новая Америка. (Bergen, P. et al. (2016). In Detail: Terrorism in America after 9/11. New America) <https://www.newamerica.org/in-depth/terrorism-in-america/>. [https://www.homeaffairs.gov.au/about-us/our-portfolios/national-security/countering-extremism-and-terrorism/countering-violent-extremism-\(cve\)](https://www.homeaffairs.gov.au/about-us/our-portfolios/national-security/countering-extremism-and-terrorism/countering-violent-extremism-(cve)).
9. Roy, O. Globalized Islam: The Search for a New Ummah. New York: Columbia University Press, 2004.pp. 45-50. <https://cup.columbia.edu/book/globalized-islam/9780231138332>
10. Ажмухамедов И.М., Таранов В.И., Агульжанова А.Р., Профилактика экстремизма в образовательных учреждениях. проблемы повышения эффективности научной работы в оборонно-промышленном комплексе россии. Материалы 2-й Всероссийской научно-практической конференции. 2019. С.350. Издательство: Астраханский государственный университет, Издательский дом «Астраханский университет. 10. (Ajmukhamedov I.M., Taranov V.I., Agulzhanova A.R., Prevention of extremism in educational institutions. Problems of increasing the efficiency of scientific work in the military-industrial complex of Russia. Proceedings of the 2nd All-Russian scientific and practical conference. 2019. P.350. Publisher: Astrakhan State University, Publishing House "Astrakhan University) <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38593183&selid=41102522>
11. “Sensitiv material” (inglizchadan: sensitive material) degani — bu aholi, ayniqsa yoshlar yoki himoyaga muhtoj guruhlar uchun salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, ehtiyotkorlik bilan taqdim etilishi kerak bo‘lgan ma‘lumotlarni anglatadi. (The term "sensitive material" refers to information that may have a negative impact on the public, especially young people or vulnerable groups, and requires careful and balanced presentation).




12.00.15-КРИМИНОЛОГИЯ (ЮРИДИЧЕСКИЕ НАУКИ)

Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li,
 Huquqni muhofaza qilish akademiyasining mustaqil izlanuvchisi
 Qarshi shahar prokurori katta yordamchisi
 2-darajali yurist
 E-mail: muhsinbekx_lawyer@mail.ru

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELI

For citation: Kholmiraev Mukhsinbek Shavqiddin ogli. CRIMINOLOGICAL ALARM SYSTEM (REAL-TIME ALERTS): A MODEL FOR EARLY DETECTION AND PREVENTION OF CRIME RISKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509373>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada hududlarda muqaddam sudlangan shaxslar ulushining oshishi, ishsizlik darajasining ko‘tarilishi, oilaviy nizolar va murojaatlar sonining keskin ko‘payishi kabi kriminogen omillarni real vaqt rejimida monitoring qilish asosida jinoyat xavfini prognozlovchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga avtomatik signal yuboruvchi “Kriminologik signal tizimi (Real-Time Alerts)” konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Tadqiqotda kriminologik omillar reestri, statistik tahlil va institutsional mexanizmlarning integratsiyasi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kriminologik prognozlash, real-time alerts, sun’iy intellekt, jinoyat xavfi, omillar reestri, profilaktika, huquqni muhofaza qilish.

Холмирзаев Мухсинбек Шавкиддин угли,
 Самостоятельный соискатель Правоохранительной Академии
 Старший помощник прокурора города Карши
 Юрист 2-й степени
 E-mail: muhsinbekx_lawyer@mail.ru

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОПОВЕЩЕНИЯ (ОПОВЕЩЕНИЯ В РЕАЛЬНОМ ВРЕМЕНИ): МОДЕЛЬ ДЛЯ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ПРЕСТУПНЫХ РИСКОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье разработана концепция «Системы криминалогических сигналов (оповещений в реальном времени)», которая прогнозирует риск преступлений и автоматически посылает сигналы правоохранительным органам на основе мониторинга в

реальном времени криминогенных факторов, таких как увеличение доли ранее судимых лиц в регионах, рост уровня безработицы, резкое увеличение числа семейных конфликтов и обращений. В исследовании научно обоснована интеграция криминологических факторов, статистического анализа и институциональных механизмов.

Ключевые слова: криминологическое прогнозирование, оповещения в реальном времени, искусственный интеллект, риск преступлений, факторный регистр, профилактика, правоохранительная деятельность.

Kholmiraev Mukhsinbek Shavqiddin ogli,

Independent Researcher of the Law Enforcement Academy

Senior Assistant to the Prosecutor of the City of Karshi

Lawyer of the 2nd Class

E-mail: muhsinbekx_lawyer@mail.ru

CRIMINOLOGICAL ALARM SYSTEM (REAL-TIME ALERTS): A MODEL FOR EARLY DETECTION AND PREVENTION OF CRIME RISKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

ANNOTATION

This scientific article develops the concept of a “Criminological Signal System (Real-Time Alerts)” that predicts the risk of crime and automatically sends signals to law enforcement agencies based on real-time monitoring of criminogenic factors such as an increase in the share of previously convicted persons in the regions, an increase in the unemployment rate, a sharp increase in the number of family conflicts and appeals. The study scientifically substantiates the integration of criminological factors, statistical analysis and institutional mechanisms.

Keywords: criminological forecasting, real-time alerts, artificial intelligence, crime risk, factor register, prevention, law enforcement.

So‘nggi yillarda jinoyatchilikning murakkablashuvi, uning yashirin (latent) shakllarining kengayishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida an‘anaviy yondashuvdan proaktiv va prognozga asoslangan boshqaruv modeliga o‘tishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, hududlarda jinoyatlarning sodir etilishida ta‘sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishsizlik darajasining yuqoriligi, aholi daromadlari pastligi va kambag‘allik, norasmiy iqtisodiyotning ko‘lami), demografik omillar (yoshlar ulushining yuqoriligi (15–29 yosh), erkaklar ulushining ustunligi, oilaviy tarkibning beqarorligi, aholining yuqori zichligi, nazoratdan chetda qolgan guruhlar mavjudligi), shaxsga oid omillar (muqaddam sudlangan shaxslar ulushining ko‘pligi, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish, giyohvand moddalarni iste‘mol qilish, agressiv yoki deviant xulq-atvor), oilaviy va maishiy omillar (oilaviy nizolar sonining ko‘pligi, ajralishlar darajasining yuqoriligi, maishiy zo‘ravonlik, ota-ona nazoratining sustligi, bolalar va voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq muammolar), hududiy omillar (yoritilmagan yoki nazoratsiz hududlar, tashlandiq binolar va infratuzilma yetishmasligi, noqonuniy savdo nuqtalari mavjudligi, transport va odamlar oqimi yuqori bo‘lgan joylar), murojaatlar ko‘payishi va boshqa jinoyat sodir etilish xavfini oshiruvchi muhim indikatorlar me‘yordan oshganda kriminologik axborotni real vaqt rejimida qayta ishlash, xavf darajasini avtomatik aniqlash va vakolatli organlarga tezkor signal yuborish imkonini beruvchi “Kriminologik signal tizimi”ni joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalaga aylanmoqda.

Darhaqiqat, kriminologik signal tizimi (Real-Time Alerts) jinoyatchilikni oldindan aniqlash va unga tezkor javob berish zaruratidan kelib chiqqan zamonaviy kriminologik yondashuvdir. Ushbu tizimning paydo bo‘lishi XX asr oxiri — XXI asr boshlarida axborot texnologiyalari, statistik tahlil va kriminologik prognozlashning rivoji bilan chambarchas bog‘liq.

Dastlabki g‘oyalar AQSh kriminologiya maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan. Xususan, 1990-yillarda jinoyatchilikni fazoviy-vaqtinchalik tahlil asosida o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000